

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)	LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)	BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	A'ZAMOV A. (O'zbekiston)	KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)	CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)	BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)	TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

Aniq va tabiiy fanlar

MATEMATIKA

A.Urinov, D.Usmonov

Soxa chegarasida buziladigan parabolik tenglama uchun chegaraviy masalalar 6

Z.YusupovaImkoniyati cheklangan bolalar maktabining matematika darslarida o'quvchilar yo'l
qo'yadigan tipik xatoliklar va ularni bartaraf etish yo'llari 19FIZIKA - TEXNIKA**M.Mirxolisov, X.Yunusov, A.Sarimsoqov**

Natriy-karboksimetilsellyuloza eritmasida barqaror rux oksidi nanozarralari sintezi va xossalari 24

BIOLOGIY, TUPROQSHUNOSLIK**I.Zokirov, Sh.Yusupova, A.Yoqubov**

Markaziy Farg'ona sabzavot-poliz agrotsenozlari entomofaglarining ekologik-faunistik tahlili 32

F.Xolboyev, F.Shodiyeva, Z.MirxonovaO'zbekistonda kurkunaklar (Merops) avlodining oziqa tarkibi va oshqozon
massasining o'zgaruvchanligi 38**G.Zokirova, Sh.Kamolov**Farg'ona vodiysi sharoitida oltinko'z (Chrysopidae: Chrysoperla) entomofagining
biologik xususiyatlari 43**F.Umurqulova, M.Ismoilova, B.Zokirov, Sh.Hasanov, J.Abduraxmanov**

Chimqo'rg'on va pachkamar suv omborlarining mikroflorasini tadqiq qilish 47

QISHLOQ HO'JALIGI**G'.Yuldashev, M.Isag'aliyev, A.Raximov, Z.Azimov**

Sho'rlangan tuproqlar pedogeokimyosi va tadqiqot usullari 50

M.Raximov, X.MuydinovXorijdan keltirilgan qoramollar buqachalari ratsioniga mineral qo'shimchalar
kiritilishi samaradorligi 56KIMYO**A.Maxsumov, A.Shodiyev, U.Azamatov, Y.Xolboyev**

Bis-[(2,4,6-tribrom-fenoksi)-karbamat] hosilasini sintezi va uning xossalari 60

X.Saminov, A.Ibragimov, O.Nazarov*Punica granatum* o'simligi "qayum" navining kimyoviy elementlar tarkibini aniqlash 65**I.Asqarov, M.Khamdamova, Y.Xolboyev**

Makkajo'xori kepagi asosida tayyorlanadigan bioparchalanuvchan idishlar kimyoviy tarkibi 70

I.Asqarov, N.Razzakov

Zirk mevasi tarkibidagi tabiiy birikmalarning immunostimulyatorlik xossalari 75

X.Abdikunduzov, A.Ibragimov, O.Nazarov, I.Jalolov, E.AkbarovUzum (*Vitis vinifera*) o'simligi pinot noir navining bargi tarkibidagi flavonoidlarni
sifat va miqdor tarkibini aniqlash 78**I.Askarov, M.Muminjanov, N.Atakulova**

Tarvuz mevasining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari 82

I.Asqarov, O.AbdulloevO'zbekistonda o'sadigan bir yillik shuvoq o'simligidan (*Artemisia annua L.*) artemizininni ajratib
olishning takomillashtirilgan usuli 86**M.Bokiyev, I.Asqarov**

Yerqalampirning kimyoviy tarkibi va undan ayrim xastaliklarni davolashda foydalanish 90

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

IQTISODIYOT

G. Xalmatjanova, A.G'ofurov

O'zbekistonda yer resurslaridan foydalanish usullari va samaradorligi 96

FALSAFA, SIYOSAT**B.Xolmatova**

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish masalalarining innovatsion yechimlari 101

S.AbdunazarovMa'naviy-mafkuraviy mexanizmlarni amaliyotga joriy etishda kompleks
yondashuvning ahamiyati 106

O‘ZBEKISTONDA YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA SAMARADORLIGI

МЕТОДЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВАMETHODS OF ANDEFFICIENCY OF THE USE OF LANDRESOURCES OF THE AGRO-
INDUSTRIALSUSTEM OF THE AGRICULTURAL CLUSTERXalmatjanova Gulchexra Djurabayevna¹, G‘ofurov Ahmadali²¹Xalmatjanova Gulchexra Djurabayevna– Farg‘ona davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari
nomzodi, dotsent.²G‘ofurov Ahmadali– Farg‘ona davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor.

Annotatsiya

Maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi yer maydonlari salohiyatidan ilm-fan va yangi texnologiyalar yordamida samarali foydalanishga va ekologik toza hamda kam suv ekinlar va mevali daraxtlardan faol foydalanish dolzarbligi maqsad qilindi, qishloq va suv xo‘jaligi iqtisodiyotni harakatlantiruvchi drayverlardan biri sifatida e‘tirof etilishi, ikkinchidan agrosanoat paxta-to‘qimachilik sohasidagi klasterlash tizimini moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashga hissa qo‘shishi, uchinchidan aholini “temir”, “ayollar”, “yoshlar” daftarlarida turganlarning asosiy ko‘pchilik qismini ish bilan ta‘minlashi, agrar sohada klaster korxonasida mehnat qilish va ishlashga o‘rgatilishi to‘g‘risida so‘z boradi.

Аннотация

В статье речь идет о том, что на основе использования потенциала местных органов власти и некоммерческих организаций в области охраны окружающей среды статья направлена на эффективное использование потенциала земельных участков с помощью науки и новых технологий и актуальность активного использования экологически чистых, ресурсосберегающих источников энергии, а также маловодных культур и плодовых деревьев, , третий - о занятости населения основного большинства из тех, кто в книгах "Железный", "женщины", "молодежь", о подготовке населения в аграрном секторе и работе на кластерном предприятии.

Abstract

The article is about the fact that based on the use of the potential of local authorities and non-profit organizations in the field of environmental protection, the article is aimed at the effective use of the potential of land plots with the help of science and new technologies and the relevance of the active use of environmentally friendly, resource-saving energy sources, as well as low-water crops and fruit trees, , the third is about the employment of the majority of those in the books "Iron", "women", "youth", about the training of the population in the agricultural sector and work at a cluster enterprise.

Kalit so‘zlar: klaster, paxta-to‘qimachilik, agrosanoat, qishloq xo‘jaligi, harakatlantiruvchi drayver, “temir”, “ayollar”, “yoshlar” daftarlari, yer maydonlari, yer va suv resurslari.

Ключевые слова: Кластер, хлопково-текстильный, агропромышленный, сельскохозяйственный, водитель-водитель, блокноты "Железо", "женщины", "молодежь", земельные участки, земельные и водные ресурсы.

Keywords: Cluster, cotton-textile, agro-industrial, agricultural, driver-driver, notebooks "Iron", "women", "youth", land plots, land and water resources.

KIRISH

Respublika statistika qo‘mitasining bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, respublikamiz bo‘yicha jami yer maydonlari 44892,4 ming gektarni tashkil etadi. Mazkur yer maydonlaridan foydalanish maqsadi va tarkibiga ko‘ra bir qancha toifaga bo‘linadi: qishloq xo‘jaligi, sanoat korxonalari, transport va yo‘l xo‘jaligi, aloqa-kommunikatsiya xo‘jaligi, mudofaa va boshqa maqsadlarga hamda tabiatni muhofaza qilishga mo‘ljallangan yer resurslari, aholi yashash punktlarining yer maydonlari, tarixiy-madaniy ahamiyatga tegishli yer maydonlariga bo‘linadi. Mamlakatimiz hududining 53,6 foizini, ya‘ni 24057,1 ming gektarini qishloq xo‘jaligiga mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan yer maydonlari tashkil etadi. Shundan, ekin yer maydonlari 3988 ming 400 gektar, ko‘p yillik daraxtzorlar 400,1 ming gektar, 45,3 ming gektar bo‘z yerlar, 14983,5 ming gektar yer yaylovlarni tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarining umumiy maydoni 20236,3 ming gektar, uni kengaytirish bo‘yicha 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida salmoqli tashkiliy-huquqiy ishlar amalga oshirildi[1].

IQTISODIYOT

Xususan, 1998 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi normalari o'zgartirilib, so'nggi yilda mazkur kodeksga bir qator qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Unga muvofiq joylarda tadbirkorlik subyektlaridan ortiqcha hujjat talab qilmaslik maqsadida, korrupsion holatlarni hamda ortiqcha ovoragarchiliklarni bartaraf etish maqsadida tuman (shahar) hokimlarining yer uchastkalarini ajratishga oid qarorlar qabul qilish vakolatlari, shuningdek, yer uchastkalarini berish masalalarini ko'rib chiquvchi tuman (shahar) viloyat, respublika komissiyalari faoliyati bekor qilindi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga ochiq elektron tanlov orqali berish amaliyoti joriy qilinishi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarga ikkilamchi ijaraga berish (ularni uchinchi shaxslarga ijaraga berish huquqsiz) normasi kiritildi.

Darhaqiqat, O'zbekistondagi barcha ekin yer maydonlari asosan, sug'orma dehqonchilikni tashkil etadi, juda ham kam qismi, taxminan 10-12 foizini lalmikor dehqonchilik tashkil qiladi. Sug'orma yer maydonlarida tomorqa xo'jaligining amaldagi holati kechiktirib bo'lmas darajada chuqur islohotlar o'tkazishni talab etadi. Ammo, ayrim sabablarga ko'ra, ayni paytda mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlash borasida juda katta eksport salohiyatiga ega bo'lgan tomorqa xo'jaligi imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotgani ham ayni haqiqatdir. Bu borada 2021 yil 3 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi qonun sohasining yangi davrni boshlab berdi.

Ta'kidlash joizki, "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi qonunda tomorqa yer uchastkalari egalari uchun bir qator yengilliklar huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Shu jumladan, tomorqa yer uchastkasi to'g'risidagi hujjatga muvofiq, tomorqa xo'jaligini yuritish qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo qilish ham, oila ehtiyojlari uchun ham yetishtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 aprelda qabul qilingan "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi qonunda esa 18 yoshga to'lgan, muomalaga layoqatli bo'lgan, o'ziga dehqon xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkasi meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida berilgan O'zbekiston fuqarosi yoki mamlakatimiz hududida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxs dehqon xo'jaligi boshlig'i bo'lmagan shaxs dehqon xo'jaligi boshlig'i bo'lishi mumkinligi belgilangan.

O'zbekistonda aholi sonining ko'payib borishi munosabati bilan, iqlim darajasining o'zgarishi, so'nggi 50-60 yil ichida bu o'zgarishlar inson faoliyati natijasida tobora keskinlashmoqda. Bunga asosan atmosferaga issiqxona gazlarining chiqarilishi asosiy omil bo'lmoqda. YA'ni, hozirgi vaqtda ularning havoga chiqarib yuborish darajasi XX asrning 90 yillaridagiga nisbatan taxminan 50 foizga ko'paygan. Buning oqibatida sayyoramizda o'rtacha xarorat ham ko'tarilib, qurg'oqchilik, suv kamayishi va toshqinlari, o'simlik va hayvonot turlarining yo'qolishi, cho'llanish jarayonlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Bularning va boshqalarning ta'sirida o'z navbatida, insoniyat hayotining deyarli hamma jihatiga ta'sir qilish davom etmoqda.

Aynan shunday fikrlar 2021 yil 5 iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan BMTning 2030 yilga qadar Barqaror maqsadli rivojlanish sohasida milliy maqsadlar hamda Orol bo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trast fondining faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish holati yuzasidan tashkil etilgan jamoatchilik eshituvida ham aytib o'tildi. Bu borada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mahalliy organlar va nodavlat-notijorat tashkilotlari salohiyatidan foydalanish asosida yer maydonlari salohiyatidan ilm-fan va yangi texnologiyalar yordamida samarali foydalanishga va ekologik toza, resurs tejamkor energiya manbalari hamda kam suv ekinlar va mevali daraxtlardan faol foydalanish dolzarbligi qayd qilindi.

Prezidentimizning qishloq xo'jaligi yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha videoselektor yig'ilishida ta'kidlanganidek, kelgusi taraqqiyot strategiyasida 2022-2026 yillarda qishloq xo'jaligi hosildorligini kamida ikki barobar yuksaltirish, xom ashyoni chuqur qayta ishlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini 7 milliard dollarga yetkazish, agroklaster xo'jaliklarida aholi bandligi va daromadlarini yanada oshirishda klasterlar asosiy tayanch va yetakchi bo'lish lozimligi ta'kidlandi.

Mavjud yer resurslaridan natijadorlik darajasida foydalanish va uni muhofaza qilish, yer munosabatlari sohalarida qonuniylikni qat'iy ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar natijasida respublikada jami 1,5 mln gektar maydonda 366 ta agroklaster va agrokooperatsiya korxonalari tashkil etildi. E'tiborsizlik oqibatida qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarning 2019 yilda 72,5 ming gektar yer maydoni, 2020 yilda 89,3 ming gektar yer maydoni foydalanishga kiritildi. 2016-2020 yillar davomida 346,5 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlaridagi paxta va g'alla maydoni qisqartirilib, mazkur maydonlarda eksportbop, yuqori daromadli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish yo'lga qo'yildi. Aholini o'sib borayotgan ehtiyojini to'laroq qondirish maqsadida

samarasiz deb tashlandiq yer maydonlaridan oqilona foydalanish usuli topilgan 54,6 ming gektar bog'lar, 26,2 ming gektar tokzorlar, rekonstruksiya qilingan holda fermer xo'jaliklari va klasterlar tomonidan qiymati 6,7 trillion so'mlik 38,5 ming dona qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlari xarid qilindi.

So'nggi 5 yil davomida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish maqsadida sho'rlangan yer maydonlarida meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish natijasida 1 million 227 ming gektar sug'oriladigan

yerlarning meliorativ holatini yaxshilanishiga erishildi. Irrigatsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida 1 million 440 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlarining suv ta'minoti yaxshilandi.

Qishloq xo'jaligi doirasida sug'oriladigan va lalmikor yer maydonlaridan samarali foydalanishda mahalliy o'zini-o'zi boshqaradigan fuqarolar yig'inlarida aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish orqali ijtimoiy mahalla tizimi yaratilib, mahalla raisiga tuman va shahar xokimi yordamchilari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish tartiblari boshqa yo'nalish bilan yer resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishi ham ishlab chiqildi. Ular olib borilayotgan mahallabay izlanishda ma'lum bo'lgan "ayollar daftari", "yoshlar daftari" va "temir daftari"ga kiritilganlarning toifalaridan o'z tomorqasida "oqilona uy" jo'jaligi egasi, klaster xo'jaligida ishlaydigan mutaxassislar, agroklastor korxonasida va tadbirkor bo'lib ishlash ehtiyojini bildirganlar qisqa o'qitish va o'rgatish kurslarida o'rgatilib, tajribasini oshirish yo'li bilan dehqonchilikka, chorvachilikka, quyunchilikka, parrandachilikka va baliqchilikka yo'naltirilib ish bilan ta'minlash ham yer resurslaridan foydalanishda juda muhimdir.

Qishloq hududlarida yashayotgan aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlami bilan mahallabay ishlashda kam ta'minlanganlarni moddiy qo'llab-quvvatlashdan tashqari, ularni muhtojlar safidan chiqarish bo'yicha kompleks yondashuvga o'tildi. Jumladan, 2021 yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun g'alladan bo'shagan 62,4 ming gektar maydon yerning 160 ming 449 nafar ehtiyojmand oilaga 10-20 sotixdan sug'oriladigan va 50-60 sotixdan yomg'irlatib lalmikor yer maydonlari bo'lib berildi. 758 mingdan ortiq kam ta'minlangan oilalarga tomorqasidan unumli foydalanishga moddiy va ma'naviy ko'maklashadi.

Ayniqsa, dasht-adir yer maydonlaridan bog'dorchilikda foydalanishga qaratilgan Quva tumanidagi anorchilik "Farg'ona anorchilik" MCHJ shaklidagi agrofirma Quvasoy shahriga qarashli yer maydonidan 275 gektar maydon ajratib berilib, anorning serhosil mahalliy sharoitga mos navlari ekildi. 2019 yilda agrotexnika tadbirlari o'z vaqtida o'tkaziladi. Hozirgi kunda tosh, shag'alli bo'lgan maydonda ko'rkam bog' yaratilib, xalqimiz suyib iste'mol qiladigan navli anor va o'rik yangi ko'chatlari o'z mevasini bermoqda. Yurtboshimizning Farg'onaga tashrifi davomida u yerda bo'lganida, bergan tavsiyalariga ko'ra, viloyat tumanlarida ham, qolaversa boshqa viloyatlarga ham ko'chat yetishtirib berish zarurligi aytilgan edi. Quva anorlarini ko'paytirish, ya'ni innovatsion g'oyalar asosida qayta ishlash, eksport bo'yicha xali ko'p ishlarni amalga oshirish lozimligi belgilangan edi. Hozirgi kunda Farg'ona davlat universitetida 100 nafar talaba anorchilik va uzumchilik bo'yicha tahsil olmoqda. Ular kelajakda anorchilik va mutaxassis uzumchilik – agronomi bo'lib yetishadi. Mastura Sayfuddinova FDU faxriy professori, anorchilikni rivojlantirish maqsadida Surxondaryo viloyati Sherobod, Muzrabot va Jarqo'rg'on tumanlarida mahalliy bog'bonlarga yaqindan yordam berib, 10 gektar maydonda yangi anorchilik tajriba tariqasida faoliyat olib bormoqda. Ayni paytda, Farg'ona viloyati tumanlarida ham anor yetishtirish, ekoturizm xizmatini ko'rsatishga ixtisoslashgan agrofirma tashkil etishni yo'lga qo'yishga harakat qilinmoqda. Bu yerda 15 navga yaqin sifatli hosil beradigan anor ko'chatlari parvarishlanmoqda. 2020 yilgacha ushbu toshloq yer maydonida anorzorlar maydoni 2 ming gektarga yetkaziladi, kelajakda undan 10 ming tonna hosil olish imkoniyati paydo bo'ladi.

So'nggi 5-6 yil davomida yer resurslaridan unumli foydalanishda fermerlar bilan klasterlar o'rtasida raqobat jarayonlari Farg'ona viloyati tumanlarida ko'zga tashlanib qoldi. Xususan, Rishton tumanida fermerlar va klasterlar faoliyat yuritishda ishlab chiqarish sohasida raqobatlashib hamkorlikda ish yuritmoqda.

Hayotiy tajriba ko'rsatadiki, klaster tizimida ishlaydigan birlashma-muassisning paxtachilik ilmidan xabardor bo'lishi shart emas. Buni 5950 gektar ekin maydoniga 104 ta paxtachilikka yo'naltirilgan fermer xo'jaliklari bilan shartnoma tuzgan Rishton tumanidagi rossiyalik tadbirkor Magamet Kostoyev tomonidan tashkil etilgan klaster korxonasi samarali faoliyat olib bormoqda.

Boshlangan faoliyatida muvaffaqiyat iqtisodiyotdan boxabar bo'lish, tadbirkorlik bilan yer maydonlaridan foydalanishda ishning ko'zini bilish, ishbilarmon bo'lish, odamlar bilan yaqindan til topishda, favqulotda holatlarda tezkor choralar ko'rish, biror ezgu qarorga kelish, qolaversa, xodimlar mehnatini rag'batlantirishga bog'liq bo'lishini ko'rsatdi.

IQTISODIYOT

Tumandagi paxta yetishtiruvchi fermer, klaster va kooperatsiya xo'jaliklari o'rtasida M.Kostoyev tashkil etgan "Puso`zbek teks" MCHJ shaklidagi klaster faoliyat yuritayotgan xorijiy hamkorlikdagi qo'shma klaster korxonasi, ya'ni paxta-to'qimachilik klasterdagi paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari va uni qayta ishlovchi korxonalar birlashmasi hisoblanadi. Bu korxonada O'zbekistonda 2018 yilda ish boshlagan 13 ta klasterning biri bo'lib, Farg'ona viloyatigi birinchi qo'shma klasterdir. Klasterga xos bo'lgan faoliyat afzalliklarining birinchi yilidayoq isbotladi. Rishton tumanida respublikada birinchi bo'lib, paxta tayyorlash shartnomasini bajardi. 2018 yil birinchi yilda har gektardan 26 sentnerdan hosil olib, 2019 yilda 30 sentnergacha, 2020 yilda 30,1 sentnerga yetdi. Chunki, yangi shartnoma tuzilgan 262 ta fermer xo'jaliklaridan klasterning paxta qabul qilish punktiga 1 noyabrgacha 17880 tonnadan ziyod xom ashyo kelib tushgan edi. Bu yangi klaster xo'jaligi ilk bor o'z faoliyatini 2018 yil mart oyidan boshlab barcha murakkab vaziyatlarni yengib o'tib, yilni kutilgan natija bilan yakunladi. Bu jarayonda klaster rahbariyati intizomsizlikka, yerdan foydalanishda talon-tarojliklarga yo'l qo'ymay yoqilg'i, mineral o'g'itlarni o'z vaqtida ishlatish va ta'minlanishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatiladi.

NATIJALAR

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida inson omilidan tashqari hosildorlik ko'p jihatdan o'simliklarning maqomi – mineral o'g'itlarga bog'liqligini yaxshi bilgan rahbariyat har gektar maydonga o'rtacha 250 kilogrammdan mineral noorganik va organik o'g'itlar, zararkunandalarga biologik ishlov berishni ilmiy asosi tashkillandi. Ilgari mashinada ortilgan mineral o'g'itni yarmiga yaqini yerga sochilguncha suiste'molchilar qo'lida qolib ketgan bo'lsa, endilikda bu o'g'itlar yerga 100 foiz solinadigan bo'ldi. Bu va boshqa nojo'ya harakatlarga chek qo'yilib, uning natijasida fermer xo'jaliklarida paxta hosildorligi oshib bordi. Agar 2017 yilda o'rtacha paxta hosildorligi bir gektar hisobiga 26 sentnerdan to'g'ri kelgan bo'lsa, 2018 yilda 33 sentnerga, 2019 yilda 37 sentnerga va 2020 yilda 39 sentnerga va 2021 yilda 41 sentnerga yetdi. "Sabina Fayz Gavhari" fermer xo'jaligida 39 sentnerga, "Ergasheva Shaxriniso" fermer xo'jaligida suvdan va yerdan samarali va tejimli foydalanib, tuproqning tarkibini ilmiy tahlil qilinganligi hisobiga hosildorlik 32 sentnerdan 38 sentnerga yoki bir yilda 4-6 sentnerga ko'tarildi. Umuman, hosildorlikni oshirishga bilimdon, tajribali agronomlar va tuproq tarkibini yaxshi biladiganlar tayinlangan.

Klasterda barcha ishlarni ekishdan, tuproqni o'rganishdan, agrotexnika tamoyillarini biladigan, sug'orish meyorlarini aniq biluvchi bilimdonlar, mineral o'g'itlarni suvga aralastirib beruvchi texnologiyalar va boshqalar ilmiy asosda ishlarni boshqarib boradi.

Klaster korxonasida barcha ishlarni maromida tashkillash va bajarish uchun 50 dona mashina-traktorga mo'ljallangan texnika parki qurilishga 3,5 gektar yer maydoni ajratilib qurilish boshlab yuborilgan, qurilishi yakuniga yetayotgan omborxonalar va chetdan Rossiya va Qozog'istondan mineral o'g'itlar olib kelib saqlanadigan binolar va mahalliy arzon suvda eritilib solinadigan o'g'itlar g'amlab qo'yilishiga katta e'tibor beriladi.

Ayniqsa, suv taqchilligini hisobga olib, cho'l zonasidagi paxtani va mevali bog'larni tomchilatib sug'orish ishlariga ham e'tibor qaratilgan. Klaster xo'jaligida faol ishlaydiganlar doimo rag'batlantirilib turiladi, maoshiga mukofotlar, pullik zaruriy maishiy buyumlar, sanatoriyalarga yo'llanmalar kabi rag'batlantirishga e'tibor beriladi. Mazkur "Rossiya-O'zbekiston" klasteri 2019-2020 yillarda paxtani o'zida qayta ishlash jarayoniga o'tish uchun yangi ip kalava yigirish, bo'yash, to'qish, tikish zanjirini mustahkam davom ettirish uchun 15 mln 700 ming yevroga binolar, dastgohlar va xodimlar tayyorlashga katta ahamiyat bermog'ida, bu yerda 375 nafar ish o'rni tashkil etildi.

Asosiy maqsad, inson kapitalini rivojlantirish paxta hosildorligini va xajmini oshirish bilan sifatli paxtani shartnoma asosida yetishtirish uchun mavjud texnika va texnologiya vositalari, zarur ehtiyot qismlar bilan ta'minlangan yangi texnikalar sotib olindi. O'tgan davrda 10 ta chopiq, 6 ta yuk tashish, 11 ta qator oralariga ishlov beradigan traktorlar, 9 ta seyalka bo'lsa, yangidan 2 ta yer tekislash texnikasi, 10 ta OVX agregati, 20 ta pritsep, 1 ta ekskavator va boshqa ehtiyot qismlar xarid qilindi.

Texnikadan foydalanib, yer resurslaridan unumli foydalanayotgan Xoshimjon G'aniyev, "Xasan-Xusan hosildor yer" fermer xo'jaligida 100 gektar ekin maydonidan 50 gektarida paxta yetishtiradi. 2020 yilning o'zida paxtachilikdan 200 mln so'm sof foyda oladi va lizing asosida 1 ta yer haydash traktori sotib oldi. Chunki klaster tufayli 60 tonnadan ziyod paxta topshirgani uchun 55 mln so'm bilan yakunlangan klaster xo'jaligi maydonni sug'orish uchun tomchilatib sug'orish agregatini, klaster tarmog'ini kengaytirish maqsadida 500 bosh qoramolga mo'ljallangan molxonalar, asalarichilik va baliqchilikni yo'lga qo'yishni rejalashtirgani bilan 20 tadan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019 yil 31 yanvardagi 253-sonli qaroriga asosan klaster korxonalariga paxta tozalash korxonalarini 5 yil muddatga bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish taklif qilingan edi. Shunga muvofiq "PUSO`zbektext" MCHJ tomonidan tumandagi paxta tozalash korxonasi 5 yil muddat ichida sotib oladi. Ushbu korxonada fermerlardan sotib olingan paxta xom

ashyosini chigitdan ajratib tozalanadi. Tolasidan ip kalava yigirib olinib, uni 90 foizi eksportga yo'naltirilib, uni Xitoy, Turkiya, Koreya mamlakatlariga sotilmoqda. Ip yigiruv korxonasi 2019-2020 yillarda tubdan modernizatsiya va diversifikatsiya qilinib, 1 mln 500 ming yevro miqdorda mablag' sarflanadi hamda Germaniyadan zamonaviy ip yigiruv dastgohlari olib kelindi va o'rnatildi. Natijada sotiladigan mahsulotning sifati ham yaxshilanib, uning unumdorlik jarajasi ham oshdi. Bu klaster maydonlarida yomg'irlatib sug'orish, 600 gektar paxtazorlarda diskretli sug'orish texnologiyalari qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

Farg'ona viloyatida sug'oriladigan yer maydoni 336,8 ming gektar, shundan sho'rlangan yerlar maydoni 92,8 ming gektar yoki 27 foiz Viloyat agrosanoatida 2,3 ming km irrigatsiya tarmog'i, 18,8 ming km kollektor-drenajlar, 170 ta nasos stansiyalari, 923 ta sug'orish quduqlari mavjud.

Sug'orish tizimidagi irrigatsiya tarmoqlarida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish usullari keng joriy etilib suv resurslari 40-50 foizgacha tejab qolinadi. Sug'oriladigan ushbu yer maydonlarida hosildorlik 15-20 sentnergacha oshishiga erishildi. 2021 yil oxiriga qadar ikkita tumanda yirik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari agroklastlar yerlaridagi suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida tashabbuslarga beriladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytganda, eng avvalo, qishloq va suv xo'jaligi iqtisodiyotni harakatlantiruvchi drayverlardan biri sifatida e'tirof etiladi, ikkinchidan agrosanoat paxta-to'qimachilik sohasidagi klasterlash tizimini moddiy-texnikaviya bazasini mustahkamlashga hissa qo'shadi, uchinchidan aholini "temir", "ayollar", "yoshlar" daftarlarida turganlarning asosiy ko'pchilik qismini ish bilan ta'minlaydi, agrar sohada klaster korxonasida mehnat qilish va ishlashga o'rgatiladi.

Ishlab chiqarilgan paxta chigit yog'i aholiga va iste'mol uchun va chetga sotilmoqda. Hozirgi paytda kalava ip ishlab chiqarish uchun to'qimachilik binosi va tayyorlangan gazlamalardan usti-boshlar uchun tikuv binosi qurilmoqda. Shundan kelib chiqib ta'kidlash joizki, "PUSO`zbektext" korxonasi tashkil etilganiga qadar bu yerdagi fermerlar paxta ekishdan oldingi ekish, ishlov berish xarajatlarining yuqori qiymatligiga nisbatan, klaster korxonasida paxta ekish boshlanishi bilan, to' paxta tolasi yetishtirishga bo'lgan vaqt davomidagi sarf-xarajatlarning pulda ifodalangan qiymati oldingi davrga qiyoslanganda 1,8 barobar kamligi 2020 yil yakunida ma'lum bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947 sonli farmoni 2017 yil 7 Lex.uz. ("On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan" by the President of the Republic of Uzbekistan)
2. O'zbekiston Respublikasining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Farmoni 2022 yil 26 yanvar "Xalq so'zi" 2022 yil. (Decree of the Republic of Uzbekistan "On the Development Strategy for 2022-2026" January 26, 2022)
3. O'zbekiston Respublikasining "Yer resurslari to'g'risida"gi Qonun 1997 yil. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Land Resources")
4. Mirziyoyev Sh.M. "yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi T.O'zbekiston" 2022 yil. 130-197. (Mirziyoyev Sh.M. "New Uzbekistan Development Strategy T.Uzbekistan")
5. Mirziyoyev Sh.M. taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizning rivojlanish texnologiyalari bergilab berilgan. Vidioselektor yig'ilishida nutqi "Xalq so'zi" 2022 yil 27 yanvar. (Mirziyoyev Sh.M. The development strategy sets out the development technologies of our country. Speech at the video conference "People's speech")
6. O'zbekiston Respublikasining "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflik ta'minlash, yerga bo'lgan xuquqni ishonchli ximoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish tizimini takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun 2022 yil 17 yanvar. (Law of the Republic of Uzbekistan "On amendments and additions to some legislative acts of the Republic of Uzbekistan in connection with ensuring equality and transparency in land relations, improving the system of reliable protection of land rights and their transformation into market assets")